

IJTIMOIY TARMOQLARDA YOZUV MADANIYATI: BEPARVOLIKMI YOKI IJTIMOIY MUAMMO?

Xaitmatova Durdona

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelgan yozma nutqdagi til qoidalarining buzilishi va imlo xatolarining sabablari, ijtimoiy-madaniy oqibatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi tezkorlik, norasmiylik hamda xorijiy so‘zlarning keng tarqalishi ona tilining zaiflashishiga olib kelishi, yoshlar orasida tilga bo‘lgan e’tiborsizlik va yozma madaniyatning pasayishi muammolari ko‘rib chiqilgan. Mazkur holat ta’lim tizimidagi kamchiliklar, psixologik faktorlar va virtual muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada til madaniyatini tiklash va rivojlantirishga doir davlat siyosati, ta’lim jarayoni va texnologik vositalarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, yozuv madaniyati, til qoidalari, yozma savodxonlik*

Abstract

The article analyzes the causes and socio-cultural consequences of violations of language rules and spelling errors in written speech on social networks as a result of the development of information and communication technologies. The problems of the immediacy, informality and widespread use of foreign words in social networks leading to the weakening of the native language, neglect of the language among young people and the decline of written culture are considered. It is scientifically analyzed that this situation is associated with shortcomings in the education system, psychological factors and the specific characteristics of the virtual environment. The article also shows the importance of state policy, the educational process and technological tools for the restoration and development of language culture

Keywords: *information technologies, social networks, writing culture, language rules, written literacy*

Kirish

Bugungi axborot texnologiyalari davrida insonlar o‘rtasidagi muloqot shakli keskin o‘zgardi. Endilikda ko‘pchilik yozma muloqotni maktublar yoki rasmiy hujjalalar orqali emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali amalga oshiradi. Telegram, WhatsApp, Instagram kabi platformalar o‘z foydalanuvchilariga tezkorlik,

soddalik va qulaylikni taqdim etadi. Shu bilan birga, bu qulayliklar orqasida yotgan katta muammo bor: yozuv madaniyatining susayishi, til qoidalarining e'tiborsiz qoldirilishi, savodxonlikning pasayib borayotganidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda kuzatilayotgan xatolarni oddiy beparvolik sifatida baholash noto'g'ri bo'ladi. Aslida bu jarayon chuqur ijtimoiy, madaniy va ta'limiy muammolar bilan uzviy bog'liqdir.

Asosiy qism

Internet foydalanuvchilarining aksariyati ijtimoiy tarmoqlarda yozuvda imlo va gramatik qoidalarga amal qilmaydi. Bu beparvolik ko'pincha tez yozishga urinish, qulaylikka intilish va hatto savodsizlikdan kelib chiqadi. Masalan, so'zlarni qisqartirish imlo va punktuatsiya qoidalariiga e'tibor bermaslik, "emoji"lar va boshqa simvollarni haddan tashqari ko'p ishlatish tilning buzilishiga olib keladi. Avval bu faqat norasmiy yozishmalarda kuzatilgan bo'lsa, bugungi kunda bunday yozuvlar rasmiy ariza, tarjimai hol (CV), hattoki ilmiy ishlar matnida ham uchrayapti. Demak, bu shunchaki xato emas — bu yozuv madaniyatining jiddiy inqirozidir. Nutqning tozaligi, tilning sofligini buzuvchi nome'yoriy unsurlardan biri fonetik-orfoepik jihatdan so'z va qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash va ularni shevaga xos talaffuz ko'rinishida yozish. Buxoroga bo'llim, aslida Buxoroda bo'ldim kabi. X va h harflaridan foydalanishda ham xato qiluvchilar talaygina.

Yana bir muammo – xorijiy so'zlarning ko'p qo'llanilishi, desak adashmaymiz. Ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy so'zlarning, ayniqsa ingliz tilidan olingan so'zlarning keng tarqalishi ona tilimizni zaiflashtiradi. Misol uchun "like", "follow", "share", "comment", "post" kabi so'zlarni ijtimoiy platformalarda muntazam ravishda qo'llash odat tusiga kirgan. Xorijiy so'zlarni aynan o'zinigina olib emas, balki ularning o'zbek tilidagi tarjima variantidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Til va adabiyot instituti tomonidan olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra, yoshlarning 68 foizi ijtimoiy tarmoqlarda yozishda imlo va gramatik qoidalarga e'tibor bermasliklarini tan olishgan. Xalqaro tadqiqotlar ham bu holatni tasdiqlaydi. Masalan, Amerika psixologik assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarda doimiy yozish natijasida yoshlar orasida yozma savodxonlik darajasi pasayib borayotgani qayd etilgan. Tadqiqotchilar buni "tilga bo'lgan befarqlik sindromi" deb atashmoqda.

Yozuvdagagi bu xatolar, avvalo, ta'limdagi muammolarni ko'rsatadi. Maktabda o'rgatilayotgan til darslari, imlo qoidalari amaliyotda o'z aksini topmayapti. O'quvchilar o'zlarini sinovda emas, balki real hayotda foydalanuvchi sifatida ko'rsatgan paytda — ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda — o'rgangan qoidalarni unutib qo'yishmoqda. Bu holat nafaqat o'quvchilar, balki kattalar orasida ham kuzatiladi.

Buning asosiy sababi – yozuv madaniyatiga bo‘lgan umumiylar befarqlik, tilni qadrlash hissining yo‘qolishi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yozuvdagi beparvolikning o‘zi ham zamonaviylik, tezkorlik, va norasmiylik bilan oqlanmoqda. Ammo bu oqlashlar ko‘pincha mas’uliyatdan qochishga xizmat qiladi. Masalan, “yozvopti”, “bervordim”, “kevomman” kabi shakllar hozirgi yoshlar orasida nafaqat ommalashgan, balki me’yoriy holatdek qabul qilinmoqda. Afsuski, bu holat nafaqat yozuvda, balki og‘zaki nutqda ham o‘z aksini topmoqda. Emotsiyalarning emojilar orqali ifodalanishi, harflarni qisqartirish yoki noto‘g‘ri talaffuz asosida yozish ham ijtimoiy tarmoq tili orqali madaniyatimizga kirib kelmoqda. Bu esa jamiyatda yozma ifodaning borgan sari qashshoqlashib borayotganidan dalolat beradi.

Yoshlar orasida so‘z boyligi tobora kamaymoqda. Tezkor muloqot, qisqa jumlalar, soddalashtirilgan ifodalar, xususan, ingliz va rus tilidan o‘zlashtirilgan aralash so‘zlar o‘zbek tili grammatikasini chekinishga majbur qilmoqda. “Like bos”, “repost qildim”, “mute qildim”, “ban yedim” kabi iboralar shunchalik keng tarqaldiki, hatto ba’zida bu ifodalarni tushunish uchun til hisobi emas, internet submadaniyatini bilish zarur bo‘lib qolmoqda. Bu holat ba’zi yoshlar orasida ona tilidan yiroqlashish, o‘z tilida fikr ifoda etishda qiyinchilik tug‘dirishiga sabab bo‘lmoqda.

E’tiborlisi, odamlar ijtimoiy tarmoqlarda qilgan xatolaridan uyalmaydi. Chunki bu maydon ularning fikricha, norasmiy, bexatar, va “o‘zi uchun” yozadigan joydir. Aslida esa, bu joylar jamiyatdagi obro‘, qiyofa va ma’naviyat aks etadigan ommaviy sahnadir. Psixologlar fikricha, internetdagi anonimlik va virtual erkinlik odamlarning o‘zini real hayotdagidan boshqacha tutishiga sabab bo‘ladi. Bu holat esa tilga bo‘lgan mas’uliyat hissini susaytiradi. Shuningdek, doimiy “xato qilish mumkin” degan ijtimoiy ruxsat odam ongida savodli yozishga ehtiyoj yo‘q degan xulosani shakllantiradi.

Til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniyat, tafakkur va milliy o‘zlikning aksidir. Tilga befarqlik — o‘zligimizga befarqlikdir. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlarda til qoidalari amal qilmaslik — bu nafaqat shaxsiy savodsizlik, balki jamiyat madaniyatining pasayish belgisidir. Bugungi kunda, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va blogerlar orqali savodsiz yozuvlarning targ‘ib qilinayotgani, buning esa millionlab yoshlar uchun “me’yor”ga aylanib borayotganini ko‘rish mumkin. Bu esa til me’yorlarining yo‘qolish xavfini yuzaga keltiradi.

Alohida e’tiborga loyiq jihat shundaki, bu jarayon ijtimoiy ongni shakllantiradi. Har qanday jamiyatda yozma madaniyatning pasayishi tafakkurning sathiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yozuv — bu fikr ifodasidir. Fikrda aniqlik bo‘lmasa, yozuvda ham aniqlik bo‘lmaydi. Bu esa insonning ijtimoiy faolligini, fuqarolik pozitsiyasini, hatto intellektual salohiyatini ham so‘ndirishi mumkin. Fikrini aniqlik bilan ifoda eta olmaydigan avlod ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok eta olmaydi.

Ayni paytda, bu muammoga qarshi kurashish uchun ijobjiy harakatlar ham kuzatilmoqda. Ayrim blogerlar, jurnalistlar va ta’lim sohasi vakillari ijtimoiy tarmoqlarda savodli yozish targ‘ibotini olib bormoqda. Biroq bu hali yetarli emas. Davlat miqyosida til madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashabbuslar, savodxonlikni targ‘ib qiluvchi media kampaniyalar, maktab va OTMlarda yozma savodxonlik bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar zarur. Xususan, yoshlarni kitobxonlikka qaytarish, adabiy tilni targ‘ib etuvchi loyihibar orqali yozuv madaniyatini oshirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda ona tilimizning buzilishi muammosiga qarshi kurashish uchun bir nechta choralar ko‘rish zarur. Birinchi navbatda, tilni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash kerak. O‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, yoshlar o‘rtasida tilga bo‘lgan hurmatni oshirish hamda ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ri yozuv va imlo qoidalariga amal qilishni targ‘oib qilish lozim. Bundan tashqari tilning sofligini saqlash va adabiy nutq me’yorlariga amal qilish haqida turli foydali kontentlarni ko‘paytirish va uni keng jamoatchilikka targ‘ib qilish kerak.

Shuningdek, texnologik yechimlar ham bu muammoga qisman chora bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy platformalarga avtomatik imlo va grammatika tahlilchilari (korrektorlar)ni joriy etish, foydalanuvchilarga yozuvdagagi xatolarni ko‘rsatish orqali til qoidalariga e’tiborli bo‘lishni rag‘batlantirish mumkin. Bu borada, masalan, “Grammarly” singari vositalar ingliz tilida ishlatilmoqda va samarasini bor.

Yozuvdagagi xatolar insonning obro‘siga ham ta’sir qiladi. Ayniqsa, ish beruvchilar, hamkorlar yoki mijozlar siz haqingizda ilk taassurotni sizning yozuvingiz orqali hosil qiladi. Yaxshi g‘oya yoki mahsulot noto‘g‘ri yozilgan post yoki reklama matni tufayli e’tibordan chetda qolishi mumkin. Zamonaviy “raqamli reputatsiya” tushunchasiga ko‘ra, inson o‘z onlayn yozuvlaridagi har bir so‘z uchun ham mas’uldir.

Boshqa mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan davlatlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yozuv madaniyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, AQShda ko‘pchilik yoshlar uchun “Grammarly”, “Hemingway Editor” kabi vositalar odatiy yozish jarayonining bir qismiga aylangan. Bu vositalar yozuvdagagi grammatik va uslubiy xatolarni aniqlab beradi. Bundan tashqari, internet etikasi – ya’ni “netiquette” atamasi ham keng ommalashgan. Unga ko‘ra, foydalanuvchilar internetda qanday yozishni, qanday so‘z ishlatishni bilishlari kerak. Bu madaniyat ijtimoiy tarmoqlarda ham savodli, ehtiyyotkor va madaniyatli bo‘lishni targ‘ib etadi.

Xuddi shunday, Yaponiyada o‘quvchilar maktab davridan boshlab internet etikasi, onlayn yozish odobi, rasmiy va norasmiy yozuv farqlari haqida maxsus darslarda ta’lim olishadi. Bu esa ularni har qanday platformada mas’uliyatli yozuvchi va madaniyatli foydalanuvchiga aylantiradi. O‘zbekistonda ham bu boradagi tashabbuslar kuchaytirilsa, ayniqsa maktab o‘quv dasturiga “ijtimoiy tarmoq etiketi”ni o‘rgatuvchi bloklar kiritilsa, yaxshi samara berishi mumkin. O‘z navbatida, bu

jarayonga texnologiyalar ham hissa qo'sha oladi. O'zbek tilida avtomatik imlo tuzatuvchi vositalar yaratish, mobil klaviaturalarga integratsiya qilish, ijtimoiy platformalarga o'rnatiladigan grammatik tekshiruv modullarini joriy etish savodxonlikni oshirish yo'lida katta yutuq bo'lur edi. Texnologik qulayliklar faqat muloqotni emas, savodli yozuvni ham qulaylashtirishi kerak.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma'qul chiqsa, tilning ofatidir". Tilimiz nutq uchun qurol ekan. "Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq. Kamon qanchalik mustahkam bo'lsa, mo'ljalga bexato uradigan bo'lsa, tilning ya'ni o'qning qudrati shunchalik yaqqalroq namoyon bo'ladi"

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalardagi xatolarni faqat "shaxsiy ish" deb ko'rish mumkin emas. Bu holat jamiyatning savodxonlik darajasi, tafakkuri va madaniy holatining ifodasidir. Har bir inson o'z tili uchun mas'uldir. Til – bu millatning yuragi. Agar biz yuragimizni asramasak, kimdir uni saqlab qolmaydi. Shu sababli har bir foydalanuvchi o'z yozuvlariga mas'uliyat bilan yondashmog'i zarur. Ijtimoiy tarmoqlar – bu bizning kundalik hayotimiz aks etadigan oynadir. Bu oynada biz o'zimizni qanday ko'rsatamiz – bu bizning ertamizni belgilaydi. Tilimizni asrash, yozuv madaniyatini saqlash – bu faqat filologlar yoki o'qituvchilarning emas, balki har bir foydalanuvchining burchidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi har bir jumla, har bir post – bu bizning jamiyatimiz madaniyatining bir bo'lagi. Shu bois, har bir so'z, har bir nuqta ustidan mas'uliyat bilan o'yash lozim. Zero, so'z – fikrning kiyimi, fikr esa jamiyatning o'zagini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayeva N. Ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati. // Modern science and research, 2025.
2. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T., 1992.
3. www.ziyonet.uz

References:

4. Jo'rayeva N. Ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati. // Modern science and research, 2025.
5. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T., 1992.
6. www.ziyonet.uz